

Asosiy ko'rsatkichlari.

2015 yilning birinchi yarim yil yakuniga qadar bankning jami aktivlari joriy yil boshiga nisbatan 14,95% ga o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar jami aktivlarning 71,07% ni tashkil qilgan.

Bank kapitalining hajmi 2015 yil 1 yanvarga nisbatan 9,12% ga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,9% oshgan holda, olingan sof foyda miqdori ham o'z navbatida 119,4 % ga oshgan

2015 yil 1 sentyabr xolatiga "Asaka" bank aktsiyadorlari ro'yxati

№	Aktsiyadorlar nomi	Aktsiyalar miqdori (dona)	Aktsiyalar paketining nominal qiymati	Ulushi (%)da
1	O'z.R. Moliya vazirligi	251 221 140	279 378 005 371,20	54,92%
2	"Uzavtosanoat" AK	60 063 900	66 795 861 912,00	13,13%
3	O'z.R Tiklanish va taraqqiyot fondi	60 000 000	66 724 800 000,00	13,12%
4	"Olmaliq TMK" AJ	28 291 923	31 462 881 729,84	6,18%
5	Buxoro NQIZ UK	25 333 966	28 173 396 909,28	5,54%
6	"O'zbekiston temir yo'llari" DATYK	10 252 577	11 401 685 830,16	2,24%
7	Farg'ona NQIZ USHK	4 464 286	4 964 643 174,88	0,98%
8	"Uzmetkombinat" AJ	4 464 286	4 964 643 174,88	0,98%
9	Navoiy TMK AJ	4 626 953	5 145 541 892,24	1,01%
10	"O'zbektelekom" AK	5 605 006	6 233 215 072,48	1,23%

11	"Uzagrosugurta" DASK	2 064 000	2 295 333 120,00	0,45%
12	"Uzbekinvest" NKEIS	518 400	576 502 272,00	0,11%
13	"Xalq Sugurta" MCHJ SK	522 000	580 505 760,00	0,11%
JAMI:		457 428 437	508 697 016 218,96	100 %

Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 noyabrdagi "2015 yilgi Davlat investitsiya dasturi" to'g'risidagi PQ-2264-sonli qaroriga muvofiq Bank zimmasiga Jahon banki Xalqaro Rivojlanish Assotsiatsiyasining "Sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish" bo'yicha **8,0 mln. AQSh dollari** 2 chorakdan boshlab jalb qilinishi rejalashtirilgan.

2015 yilning may oyida liniya bo'yicha 3ta loyiha moliyalashtirilishi ochildi (**Mubarek GPZ, Shurtanneftegaz UShK, Muborakneftegaz UShK**). Jami **3,97 mln. AQSh dollar** miqdorida mablag'lar jalb qilingan va o'zlashtirilgan.

Bugungi kunda samarali loyiha tashabbuskorlari bilan moliyalashtirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun mablag'lar ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,8 foizga ko'paydi.

Shundan ajratilgan mikrokreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,8 foizni tashkil etdi.

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,0 foizni tashkil etdi.

O'zR Prezidentining PQ-1047-sonli qaroriga asosan oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131.8 foizni tashkil etdi;

O'zR Prezidentining PQ-1050-sonli qaroriga asosan nooziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 133.0 foizni tashkil etdi;

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 129.8 foizni tashkil etdi, shuningdek, Ta'lim muassasalari bitiruvchilariga kreditlar ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2015 yil davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 2033 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bank depozitlari bo'yicha

2015 yilning birinchi yarim yil yakuniga qadar bankning jami depozit bazasi (talab qilinguncha, jamg'arma, muddatli, depozit va jamg'arma depozit sertifikatlar va obligatsiyalar) miqdori joriy yil boshiga nisbatan 12,72% oshgan. Aholi omonatlari qoldiqlari o'tgan yilga nisbatan 116% ko'paydi, shundan muddatli omonatlar o'tgan yilga nisbatan 119%ga ortdi.

Bank bo'yicha jami 42 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 25 tasi milliy valyutadagi va 17 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

2015 yil yanvar-iyun oylarida «Asaka» bank bo'yicha 1 981 mlrd.so`m pul mablag`lari kelib tushgan (naqd pulda 1 319 mlrd.so`m, plastik kartochkalar orqali – 662 mlrd.so`m). O'tgan yilning shu davriga nisbatan jami pul tushumi 140 mlrd.so`mga yoki 108 % ga ko`paygan.

Savdo va pullik xizmat orqali nakd puldagi tushum o'tgan yilga nisbatan 108% ga ortgan.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlardan tushgan tushum 130% ga ortgan.

Boshqa tushumlardan (kommunal xizmatlar, soliqlar, omonat, o'qish pullari) 236 mlrd.so`mlik naqd pulda tushum bo`lgan.

Plastik kartochkalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.

Bank tomonidan 1mln. 386ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 144 ming donaga ko'paygan.

2015 yilning 1 iyl holatiga bank tomonidan 10049 ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 9093 donani tashkil qiladi.